



AKTYORNING MA'NAVIY OLAMINI BOY ETISHDA TEATRNING AHMIYATI

Anvar Mirzayev

“Vokal” kafedrası o`qituvchisi

Annotasiya:

Ushbu maqolada aktyorning ma'naviy olamini boy etish, teatr ulug` maskan ekanligi va bu maktabni bo`lajak aktyorlar munosib davom etishi xususida so`z boradi

Kalit so'zlar: aktyor, sahnaviy obraz, vokal ijrochiligi, xarakter, ariya, dramaturgiya, orkestor.

THE IMPORTANCE OF THEATRE IN ENRICHING AN ACTOR'S SPIRITUAL WORLD

Anvar Mirzayev

Teacher of the “Vocal” Department

Abstract

This article discusses the enrichment of the actor's spiritual world, the fact that the theater is a great place, and the worthy continuation of this school by future actors.

Keywords: actor, stage image, vocal performance, character, aria, dramaturgy, orchestra.

Inson ma'naviy olamini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Zero, san'at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go'zal his-tuyg'ularni in'om etadi. Teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat maskanidir.

1961-yilda YUNESKO huzuridagi Xalqaro teatr instituti tomonidan Avstriyaning Vena shahrida bo'lib o'tgan IX kongressda 27-mart — Xalqaro teatr kuni deb ta'sis etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlarida ushbu sana, teatr san'ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.



Prezidentimizning sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizda ham madaniyat va san'atni, xususan teatrni rivojlantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Teatr bor ekan, hayot maroqli va go'zaldir

— Teatr deganda, avvalambor, san'atning katta bir turini tushunish lozim. Shu bilan birga, teatr, bu — tomosha, spektaklning o'zi, — deydi O'zbekiston xalq artisti, "El-yurt hurmati" ordeni sohibasi Rixsi Ibrohimova. — Hayotim teatr bilan chambarchas bog'langan. Umr yo'llarimning har bir sahifasi teatr sahnalarida o'tgan. Ochig'ini aytsam, hech bir san'at turi teatr o'rnini bosa olmaydi. Chunki odamiylikning go'zal fazilatlarini targ'ib qilishda sahna asarlarining ta'siri benihoya kuchli. Teatr san'ati hayotni, voqea-hodisalarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Shekspirning "Butun olam — teatr, unda har bir odam — aktyordir", degan jumlasini biz ko'p holatlarda iqtibos keltirib ishlatamiz. Teatr bor ekan, hayot maroqli va go'zaldir!

Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir

Darhaqiqat, teatr hayot ko'zgusi, muqaddas dargoh sanaladi. Uning tarbiyaga yo'g'rilgan saboqlari esa kishilarni odamiylikka chorlab turaveradi. O'zbek teatr asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda, "Teatr ibratxonadir". U o'zining "Padarkush" dramasini sahnalashtirib, xalqning ma'naviyatini yuksaltirishga chog'langan. Aslida esa bu ko'hna olamning san'atsevar odamlari ibratxona atalmish tarbiya maskanini juda qadimdanoq kashf qilgan.

— Davlatimiz rahbarining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yana-da rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda 2020-yil 28-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida teatrlarni rivojlantirish, jamoatchilikda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, sohadagi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, barcha teatrlarning saytlari yangilanib, uch tilda yuritila boshlandi. Har bir ijodiy jamoa tasdiqlangan rejaga, asosan, yiliga 4 tadan,



respublikamiz teatrlari bo'yicha jami 150-160 ga yaqin yangi spektakl sahnalashtiradi. Ijodiy jamoalar repertuarida turli yosh va qiziqishga ega tomoshabinlarga mo'ljallangan tragediya, drama, komediya janrlarida jahon hamda o'zbek mumtoz asarlari namunalari mavjud. Prezidentimiz biz ijodkorlarga katta ishonch bildirib, "Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir", — deya ta'kidlagan. Biz o'z ishimizga borlig'imizni bag'ishlab ijod qilsak, odamlar ko'ngliga yo'l topamiz. Teatr san'ati esa hech qachon eskirmaydi. Inson qanchalar telefon, internet va kompyuter kabi axborot texnologiyalariga o'rganmasin, baribir ma'naviyat dargohi sifatida o'rnak bo'ladigan teatrning o'zni boshqa. Shu bois, biz yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan sahna asarlarini qo'yishimiz, ularga xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni keng jalb qilishimiz lozim.

Sahna bilan yuzma-yuz

Darhaqiqat, kino yoki konsert tomoshalarini televideniye yoxud internet orqali tomosha qilish, zarur bo'lsa ulardan nusxa ko'chirib olish mumkin. Lekin teatr shu qadar nozik san'at turlaridan sanaladiki, tomoshabin rol ijro etayotgan aktyorlarning nigohi va nafasini, har bir so'ziyu xatti-harakatini jonli tarzda ko'rib, his qilib turadi. Ko'z oldida sahna turadi, shu yerda aktyorlar bilan birga yashaydi, yig'laydi, kuladi...

— Teatrda qo'yiladigan har bir spektakl tomoshabinlarga manzur bo'lishi, sahnadan o'rin olgan dekoratsiyalar jonli, ishonarli tarzda bo'lib, asarni yana-da boyitishga xizmat qilishi kerak. Spektakldagi jarayonlarning qiziqarli, jonli chiqishida, shubhasiz, dekoratsiyalarning o'zni alohida ahamiyatga ega. Shu sababli sahna asarlari tomoshabinlarga namoyish etilayotganida xuddi imtihon topshirayotgandek bo'lamiz. Agar spektakllar tomoshabinlarga manzur bo'lsa, bu bizning yutug'imiz. Boshqa qardosh mamlakatlar qatori yurtimiz teatr rejissyorlari ham internet orqali onlayn tomoshalar, audiospektakllar yaratib, yangi asarlar repetitsiyalarini namoyish etmoqda. Aktyorlar monolog, she'r, masallar o'qib, internet tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirdi. Biroq teatr san'atining aktyor va tomoshabin o'rtasidagi muloqoti, o'zaro munosabati singari "jonli" aloqasini hech qanday vosita orqali bog'lab bo'lmaydi.



Bugungi teatr yangicha yondashuv va uslubni talab qiladi

Ha, bugungi voqeliklar shiddat bilan o'zgarayotgan davrda teatrlar ham faqatgina davlat beradigan moliyaviy ko'makka qarab tura olmasligini ko'rsatyapti. Bugun, teatrlar zimmasiga xalqimizning ma'naviy talabini qondirish barobarida, taqdim etilajak spektakllar evaziga daromad ko'rishdek mushkul vazifa yuklanadi.

Demak, buning uchun teatr-tomosha muassasalari zamon va bugungi vaziyat talabiga ko'ra, yangicha yondashuv uslubiga o'tishi lozim.

— Har bir teatr jamoasi, tomoshabin bilan ishlash tizimini yaxshi yo'lga qo'ya olishi kerak. Teatrlar oldiga qo'yilgan asosiy vazifa, ishlab chiqarayotgan mahsuloti (spektakl) jamoaviy badiiy ijod mahsuli orqali kishilik jamiyatini ezgulik va yaxshilikka ergashtira olish, insonlarning ma'naviy, madaniy va ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishdan iborat.

Binobarin, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, urf-odatlar, an'analari singari hech qaysi millatnikiga o'xshamagan go'zal qadriyatlari borki, shular asosida o'lmas sahna asarlarini yaratib, elimizga havola etish eng asosiy vazifamizga kiradi.

Darhaqiqat, yillar davomida shakllangan boshqaruv va teatr asarlarini taqdim etish usullari endilikda o'zgarib bormoqda. Zero, axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi yillarda shiddatli o'zgarishi va rivojlanishi aksariyat sohalarning faoliyatini butunlay qayta ko'rib chiqish, ish uslublarini o'zgartirishga majbur qildi. O'zbek milliy akademik drama teatri aktyori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mehriddin Rahmatov bu haqda shunday fikr bildirdi:

— Hozirgi davr va sharoitda, birinchi navbatda, teatr jamoasining tajriba va malakasi, iste'dodi, zamonaviy menejment sirlaridan qanchalik voqifligi, xususan, internet tarmog'idan unumli, samarali foydalana olishi, reklama-targ'ibot ishlarini oqilona yurita bilishi singari qator vazifa hamda talablarga e'tibor qaratish, zarur va shart deb o'ylayman.

Shu bilan birga, teatr tashqi va ichki ta'sir vositalari, ilgari yo'l qo'yilgan kamchiliklar, spektakllarning obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, almashtirilishi yoki bekor qilinishi, ma'lum bir artistning ishtirok etmasligi yoki asar qahramonining almashtirilishi kabi holatlarni chuqur tahlil qilib, real vaziyatdan kelib chiqib marketing strategiyasini ishlab chiqishi muhim. Bunday tahlil,



shubhasiz, teatrning faoliyati, yutuq va kamchiliklari sabablarini aniqlash, aktyorlar malakasi, professionalligiga baho berish, kelajakda esa mavjud kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Teatrning rivojlanishi va spektakllarni keng tomoshabinlar ommasiga taqdim etishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun, birinchi navbatda, tomoshabinni jalb eta oladigan yangi spektakllar yaratish va teatrlar bilan o‘zaro faoliyatni tahlil qilib borishga e’tibor qaratyapmiz. Xalqimizning yuragiga yetib boradigan, qalbini zabt etadigan, ezgu maqsadlarga chorlaydigan asarlarni sahnalashtirishga harakat qilyapmiz.

Faoliyatda mustahkam zanjir bo‘lmog‘i lozim

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi “2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori teatr san’ati sohasidagi tomosha va konsert dasturlarini yaratishda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib sahna asarlari, tomoshalar va konsert dasturlari bilan hissa qo‘shib borish, teatr va tomosha san’atini keng targ‘ib etish maqsadida xorijiy muassasalar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish kabi bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida teatr-tomosha muassasalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va elektron ishlash tajribasiga ega zamonaviy menejerlarni jalb etishga, ijodiy kechalar, ekskursiyalar, teatr tarixiga oid qog‘oz va video ko‘rinishidagi xabarlar, tomoshabinlar ishtirokida so‘rovnomalar tashkil etishga katta e’tibor qaratilyapti.

Repertuarni shakllantirishga, tomoshabinlarni jalb etishga yangicha yondashuv qaror topgan teatrlarda ijodiy barqarorlik mavjud. Bunday muhitda ijodkorning o‘z ishiga bo‘lgan ishonchi va shijoati yana-da oshadi. Teatr san’ati tarkibini hosil qiluvchi zanjir mustahkam bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina yaxshi asar asosida, dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san’atining namunasi bo‘lgan umirboqiy, beqiyos spektakllar yaratilaveradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidova M. Halima Nosirova. T.: Fan. 1998.
2. Qodirov M. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun. T.: Mumtoz so'z, 2011.
3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: O'qituvchi. 1981.
4. Rizayev SH. Jadid dramasi. T.: Sharq. 1997.
5. Nurmatov X. Musiqa san'ati axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasi. – T.: O'zbekiston. 1989.
6. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. T.: Yangi asar avlodi. 2001.
7. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.
8. Ahmedov M. Doni Zokirov. T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
9. Abdullayeva O. Musiqa va hayot falsafasi. T.: 1998.